

# TARBIYA 3

## BAXT VA MUVAFFAQIYAT SIRLARI

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining  
3-sinf o'quvchilari uchun darslik

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi  
tomonidan tavsiya etilgan



TOSHKENT  
«SANO-STANDART»  
2020

KBK 87.7ya71

87.7ya71

T 23

**Mualliflar:**

Ro'ziyeva Dilnoz, Ismatova Nargiza, Mo'minova Laylo, Islomov Zohidjon, Rahimjonov Durbek, Sattorov Shuhrat, Zamonov Zokir, Maximov Obiddin, Zokirova Sevara, Shermuxamedova Saodat, Akkulova Saodat, Xolmuxamedova Nilufar, Madaliyeva Sevara.

**Mas'ul muharrirlar:**

Z. Islomov – filologiya fanlari doktori, professor;  
D. Kenjayev – tarix fanlari nomzodi.

**Taqrizchilar:**

M. Quronov – Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari o'rinnbosari;  
U. Nigmanova – Nizomiy nomidagi TDPU «Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari» kafedrasi dotsenti;  
Z. Jabborova – Respublika ta'lif markazi metodisti;  
D. Bobomurotova – Toshkent shahar Uchtepa tumani 287-sonli umumiy o'rta ta'lif matabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi;  
L. Gaynutdinova – Respublika tashxis markazi direktori;  
M. Zohidova – O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi O'quv-metodika va harbiy vatanparvarlik bo'limi boshlig'i.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining tegishli xulosalari asosida nashrga tayyorlangan.

### SHARTLI BELGILAR



**Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar**



**Oila davrasida**



**Ijodiy faoliyat**



**Birgalikda bajaramiz**



**Bilasizmi?**



**Hikmat**

**Respublika maqsadli kitob jamg'armasi mablag'lari hisobidan chop etildi.**



## 2-SINFDA O'RGANGANLARIMIZNI TAKRORLAYMIZ

- ✓ DO'STLARGA G'AMXO'RLIK QILISH
- ✓ KICHIKLARGA YORDAM BERISH
- ✓ KATTALARINI HURMAT QILISH
- ✓ KIYINISH MADANIYATIGA RIOYA QILISH
- ✓ XUSHMUOMALA BO'LISH
- ✓ KECH QOLMASLIK
- ✓ DARSGA TAYYOR HOLATDA KELISH
- ✓ DARSDA TARTIBLI BO'LISH
- ✓ O'NG QO'L QOIDASIGA AMAL QILISH
- ✓ TANAFFUSDA BOSHQALARNING  
DAM OLISHIGA XALAQIT QILMASLIK
- ✓ XAVFSIZLIK QOIDALARIGA RIOYA QILISH
- ✓ OSHXONADA TARTIBGA RIOYA QILISH





I bob. Orzular maqsadlar sari yetaklaydi

I  
BOB

# ORZULAR MAQSADLAR SARI YETAKLAYDI

## 1-MAVZU: MUNOSIB FARZAND



### Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar



1. «Munosib farzand» deganda nimani tushunasiz?
2. Oilangizga munosib farzand bo‘lish uchun nima qilish kerak deb o‘ylaysiz?
3. Vatanimizga munosib bo‘lish uchun qanday inson bo‘lish kerak?
4. O‘z ota-onangizga munosib farzand bo‘lish uchun nimalar qilyapsiz?

Mana, orziqib kutilgan kun ham keldi. Turkiyada o‘tkaziladigan fan olimpiadalariga o‘quvchilar bir necha oy tayyorlanishdi. Aeroportda ota-onalari ularga yaxshi tilaklar bildirishdi.

– Siz Vatanimizga munosib farzand bo‘lishingiz kerak, albatta, g’alaba bilan qayting, – deya duo qilishdi kattalar.

Turkiyada o‘tkazilgan olimpiadada Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Rossiya, Turkiya, Ukraina va boshqa davlatlardan 500 nafar o‘quvchi ishtirok etdi.

Tinimsiz mehnat, muntazam darslar, yaqinlarining yordami bilan ular g’alaba qozonishdi.





O‘quvchilar ota-onalari va ustozlarining ishonchini oqlashdi. Musobaqada 6 ta oltin, 20 ta kumush va 23 ta bronza medallari qo‘lga kiritildi. Umumjamoa hisobida birinchi o‘rin egallandi.





## Ijodiy faoliyat

1. Hikoyaga nom qo'ying.
2. Sizga qaysi fan ko'proq yoqadi?
3. Siz qaysi fanlardan bilimdonlar musobaqasida ishtirok etishni xohlar edingiz?
4. Bilimdonlar musobaqasida yutuqqa erishish uchun nimalar qilish kerak?
5. Ota-onalarning ishonchini oqlash uchun qanday harakat qilish kerak? Ishonchni oqlash o'zi nima?
6. Sizning imkoniyatlaringiz hammada ham yo'q. Bu imkoniyatlardan qanday foydalana olayotganingizni o'ylab ko'ring.



## Oila davrasida

Quyida berilgan so'zlardan foydalanib, gap tuzing. Nima uchun bu so'zlarni ishlatganingizni tushuntiring.

Muvaffaqiyatga erishish juda oson.  
Buning uchun:

Katta \_\_\_\_\_ qiling.

Orzularingiz uchun \_\_\_\_\_,  
\_\_\_\_\_ oling.

Olg'a boring, orzulardan \_\_\_\_\_  
kechmang.

Orzu qila oldingizmi, unga \_\_\_\_\_  
ham olasiz.

### Foydalanish uchun so'zlar:

*intiling, bilim*

*orzular, erisha, voz*





## 2–3-MAVZULAR: MUVAFFAQIYAT – QAT'IYAT VA MEHNAT NATIJASI

Birgalikda bajaramiz



### MUVAFFAQIYATGA QANDAY ERISHILADI?


1. Texnologiya fanidan olgan bilimlaringizga tayanib, o‘z qo’llaringiz bilan biror narsa yasang yoki rasm chizing.





## I bob. Orzular maqsadlar sari yetaklaydi

2. Sinfoshlaringiz bilan kelishib 6 ta oq qog'ozga o'quvchilar soniga teng katakchalar chizing va katakchalarning har biriga 1000 so'm deb yozib chiqing. Katakchalarni qaychida kesib oling, har bir sinfdoshingizga 5 tadan tarqating.



3. Sinfingiz bankini tashkil qiling va qolgan pullarni bankka qo'ying.

4. Sinfoshlaringiz bilan yarmarka tashkil qiling. Biror-bir mahsulotga pulingiz yetmasa, bank bilan shartnomaga tuzib ko'ring.

5. Har biringiz o'z mahsulotingizga narx qo'ying va uni reklama orqali soting.

6. Xizmat ko'rsatish shoxobchalarini ham tashkil qilib ko'ring.





## Ijodiy faoliyat



1. Nima uchun narxlarni bunday belgilaganingizni asoslashga harakat qiling.
2. Mahsulotni ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, sotish yoki sotib olishning qaysi biri eng oson ish deb o'ylaysiz?
3. Sotuvdan qancha foyda ko'rdingiz?
4. Quyidagi jadvalni to'ldiring.
  - 1) Qaysi mahsulot yaxshi sotildi?
  - 2) Mahsulot sotish uchun qanday qoidalarga amal qilish kerak?
  - 3) Qanday mahsulotni sotib olasiz?
  - 4) Xizmat ko'rsatishning qaysi turidan foydalandingiz?



?

?

?

Savollar	1	2	3	4
Mahsulotga bo'lgan ehtiyoj				
Sotish				
Sotib olish				
Xizmat ko'rsatish				



?

?

?



## MAQSAD VA IMKONIYAT

Qandolat fabrikasini tashkil qilish orzusi bolaligimdan boshlangan.

Shirinliklar jon-u dilim edi. Do'konlar peshtaxtasida chiroyli qilib terib qo'yilgan shirinliklarni ko'rsam, ko'zim quvnab ketar edi.

Buvimdan shirinliklar olib berishlarini so'rardim. Ular bilan birgalikda shirinliklar sotib olish uchun do'konga borar edik.





U vaqtarda to'rt-besh xil turdag'i shirinliklar ishlab chiqarilar edi. «Katta bo'lsam, sifatli va har xil shirinliklar ishlab chiqaraman, men kabi bolalarda tanlash imkoniyati ko'proq bo'lsin va bizning shirinliklarni hamma maqtab-maqtab yesin», deb orzu qilganman.

Yillar o'tdi. Bolalikdagi orzularimni amalga oshirish uchun tinmay harakat qildim. Nihoyat, 2017-yilda maqsadimga erishdim.

Toshkent shahrida «O'zbek qandolati» brendi os-tida qandolatchilik fabrikasini tashkil qildik. Katta maydonda qurilgan fabrikada jahonning eng mashhur korxonalarining ishlab chiqarish uskunalarini o'rnatildi. Hozirda fabrikada 256 xil qandolat mahsulotlari ishlab chiqariladi.

Aziz bolajonlar! Men o'z oldimga qo'ygan maqsadimga erishish uchun tinmay mehnat qildim. Siz ham faqat olg'a harakat qilsangiz, orzularingizga, albatta, erishasiz.

Barchangizni fabrika bo'y lab virtual sayohatga taklif qila-man!

*Azizzon Amilov*





I bob. Orzular maqsadlar sari yetaklaydi



## Ijodiy faoliyat

Rasmlar asosida matn tuzing.






## Oila davrasida



Siz nima deb o'ylaysiz, Azizzon Amilov qandolatchilik fabrikasini tashkil qilish orzusini qanday amalga oshirgan? Berilgan harakatlarni ketma-ketlikda raqamlab, daftaringizga ko'chiring.





I bob. Orzular maqsadlar sari yetaklaydi

#### 4-MAVZU: SERQUYOSH, HUR O'LKA



##### Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar

1. Nima uchun O'zbekistonni serquyosh o'lka deb ataymiz?
2. Mamlakatimiz madhiyasidagi «Serquyosh, hur o'lksam» degan so'zlar nimani bildiradi?
3. Hurlik insonga nima beradi?
4. «Mustaqillik» va «hurlik» so'zlarini nima bog'lab turadi?
5. Siz qachon mustaqil faoliyat ko'rsata olishingiz mumkin?





## Ijodiy faoliyat



### Dunyodagi mening makonim

1-qadam. Sirkul yordamida qog'ozlarga turli o'lchamdagি doira shakllarini chizing. Doiralarning o'lchami katalashib borishi zarur; 2-qadam. Doiralarni qaychi yordamida ehtiyojkorlik bilan qirqib oling; 3-qadam. Eng katta doirani «Ona Yer», kichikrog'ini «Mening Vatanim», undan kichikrog'ini «Mening shahrim (tumanim)», undan-da kichikrog'ini «Mening mahallam», eng kichigini «Mening uyim» deb nomlang; 4-qadam. Doiralar ichida nimani tasvirlagan bo'lardingiz? Tasavvuringizni doiralar ichiga tushiring; 5-qadam. Har bir doiraning nomini yarimoy shaklida pastki qismiga yozib chiqing; 6-qadam. Eng katta doiradan boshlab, ustma-ust qilib taxlang. Doiralarning nomi ko'rinib tursin; 7-qadam. Har bir doiraning yuqorisini qalam bilan belgilang. Birlashtirish uchun kichik teshik hosil qiling va shu yerdan ip yoki halqa o'tkazib birlashtiring; 8-qadam. Ularni aylantirib ochib ko'ring. Bu suvenirni kimgadir sovg'a qilishingiz mumkin; 9-qadam. «Oila – Vatan ichidagi Vatan» degan hikmatni bu doirachalar bilan bog'lab tushuntirishga harakat qiling.

Eslatma: doirachalarning orqa tarafiga rasm bilan bog'liq hikmatli so'zlarni yozishingiz ham mumkin. Bunda, albatta, kattalar dan yordam so'rang.





I bob. Orzular maqsadlar sari yetaklaydi



## Oila davrasida

Quyidagi savollarga kattalar yordamida javob izlab ko'ring.

1. Sayyoramiz oldida bizning qanday burchlarimiz bor?
2. Inson Vatani uchun qanday yaxshi ishlar qila oladi?
3. Viloyat va shahrimiz tinchligi uchun nimalar qilishimiz mumkin?
4. Ona qishlog'imiz, mahallamizni qanday asrab-avaylashimiz mumkin?
5. Oilamiz baxti uchun qanday hissa qo'sha olamiz?



## Ijodiy faoliyat


1. Maqolni o'qing va berilgan topshiriqlarni bajaring.  
*Ona yurting omon bo'lsa,  
Rangi ro'ying somon bo'lmas.*
2. «Ona yurting omon bo'lsa» deganda nimani tushundingiz?
3. Sizning ona yurtingiz qayer?
4. Ona yurting omon bo'lishi nimalarga bog'liq?
5. Yurting farovonligi uchun siz nima qila olasiz va nima qilmoqdasiz?
6. «Rangi ro'ying somon bo'lmas» deganda nimani tushuningiz?





## I BOB YUZASIDAN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. O'zingiz orzu qilgan maqsadga erishish uchun qanday rejalaringiz bor? Siz havas qilgan insonlar muvaffaqiyatga qanday erishganlar?
2. Quyidagi chizmaga e'tibor qarating. Muammo yuzasidan fikr yuriting.



3. Ota-onangiz bilan kelajagingiz haqida suhbatlashib ko'ring. Yaqinlaringizning qaysi xislatlarini qadrlaysiz?
4. Quyida keltirilgan jumlalarni o'qing va ularga mos keladigan so'zlar bilan to'ldiring.  
Ota-onasiga munosib farzand ...  
Men orzuyimga erishishim uchun ...  
Mening imkoniyatlарим ...  
Serquyosh, hur o'lkam ...



## I bob. Orzular maqsadlar sari yetaklaydi

5. «Harakatda – barakat» maqolining ma’nosiga mos keluv-chi hikoya, ertak, masallardan misollar keltiring. Topgan misolingizni do’stlaringizga ko’rsatib, ularning fikrini biling.
6. O’z qat’iyati, sabr-qanoati natijasida muvaffaqiyatga erishgan tengdoshlaringiz haqida Internet materiallarini o’qib, sinfda so’zlab bering.
7. Oiladagi kattalar bilan sog’lioni mustahkamlash haqida suhbatlashing.
8. Maqsadingizga erishish uchun yaqinlaringiz, do’stlaringiz, Vataningizning o’rnini haqida mulohaza yuriting.
9. Eng oliy maqsad – ona Vatanning gullab-yashnashi uchun xizmat qilish ekanligining mag’zini chaqing. O’zingiz va o’rtoqlaringizni ona yurt ravnaqi uchun mas’uliyatli, deb bilsizmi?





II  
BOB

## BILIM VA ODOB – INSON ZIYNATI

### 5-MAVZU: ENG BUYUK SHARAF

#### Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar



1. «Sharaf» deganda nimani tushunasiz?
2. Sharafli nomga ega bo'lgan insonlardan kimlarni bilasiz?
3. «O'qish va o'rganishdek sharafli hamda yoqimli narsa yo'q» deganda nimani tushunasiz?

#### Hikmat



Ey farzand, ilm mol (davlat)dan yaxshidur, ilm seni qo'riqlaydi, sen esa molni qo'riqlaysan. Molni sarflash bilan kamayadi, ilmni sarflash bilan ziyoda bo'laveradi.





Sevara «Atrofimizdagi olam» darsida bizni o’rab turgan havo haqidagi ayrim ma’lumotlarni tushunishga qiyndaldi. Qo’l ko’tarib savol bermoqchi bo’ldi.

- Voy, shuni ham bilmaysanmi? – iljaydi partadoshi Bobur.
- Hozir ustoza savol bersam, sinfdagi bolalar mening ustidan kulishadi, – o’zicha o’yladi Sevara va savol bermadi.
- Kelgusi darsda ustozi uni savolga tutdi. Sevara jimgina yerga qaradi.
- Ustoz, men u darsni tushunmagan edim, – sekingina javob berdi u.
- Tushunmagan bo’lsang, nima uchun so’ramading? Kim tushunmadi, deb so’radim-ku. Bahona qilma! – dedi ustozi va unga ikki baho qo’ydi.



### Ijodiy faoliyat


1. Hikoyaga sarlavha qo’ying.
2. «Bilmaslik ayb emas, o’rganishga intilmaslik aybdir» degan hikmatni hikoya bilan bog’lang.
3. Sevara ikki baho olmasligi mumkinmidi?
4. Sevaraning xatosini toping.
5. Siz hikoyadan o’zingiz uchun qanday xulosa chiqardingiz?





## RIVOYAT

Rivoyat qilinishicha, bir kuni Muhammad (s.a.v.) Hiro g'orida o'tirganlarida Jabroil farishta kelib: «O'qing!» – dedi. U kishi: «Men o'qishni bilmayman», – dedilar. Farishta yana: «O'qing», – dedi. «Men o'qishni bilmayman», – dedilar. U yana bir bor: «O'qing!» – dedi. «Men o'qishni bilmayman», – deb uchinchi marotaba javob qaytardilar. Jabroil farishta: «O'qing, Rabbingiz ismi bilan! O'qing!» – dedi qat'iylik bilan.



### Oila davrasida



1. Berilgan matnda o'qish lozimligi haqida necha marotaba aytiladi?
2. Komil inson bo'lish uchun faqat bilimning o'zi yetarlimi?
3. Bilim olishning ahamiyati haqida kattalardan so'rab biling.



## 6-MAVZU: BILIM OLISH ODOBI



### Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar

1. Bilim olish uchun odobli bo'lish kerakmi?
2. Dars vaqtida boshqa ishga chalg'ib, darsni tushunmay qolgan vaqtingiz bo'lganmi?
3. Ustozingiz qaysidir sinfdoshingizga «Darsga xalaqit berma, boshqalarning vaqtini o'g'irlayapsan», – deb tanbeh bergenmi?
4. Birovning vaqtini qanday o'g'irlash mumkin? O'g'irlangan vaqtni to'lab berish mumkinmi?

Sardor bugun matematika darsida o'qituvchining barcha savollariga javob berib, «a'llo» baho oldi.

Partalar orasidan viqor bilan yurib borar ekan, o'rtoqlariga bir-bir qarab qo'ydi. Darsdan so'ng o'rtog'i Abbos: «Menga mana bu masalani tushunishimga yordam ber», – dedi umid bilan.



### Ijodiy faoliyat

1. Siz nima deb o'ylaysiz, Sardor qanday javob bergan bo'lishi mumkin?
2. Siz Sardorning o'rnida qanday yo'l tutgan bo'lar dingiz?





Sardor esa: «Voy, voy, voy, nima deyapsan? Senga masalani tushuntirsam, sen ham «a'lo» baho olasan. Yo'q, tu shuntirmayman!» – deb javob berdi.

Bu voqeaga guvoh bo'lgan Dilbar Abbosga: «Kel, men yordam beraman, kecha men ham «a'lo» baho olgandim», – dedi.

Ularni kuzatib turgan ustozi Dilbarga: «Barakalla, qizim, hech qachon do'stlaringdan yordamingni ayama», – dedi.



### Ijodiy faoliyat



1. Hikoyaga sarlavha qo'ying.
2. Sardor va Dilbarning harakatlariga baho bering.
3. Kataklar ichidagi harflarda «Odobli bola elga manzur» maqoli yashiringan. Ushbu maqolni toping.


q	sh	e	t	o	c	s	u	k	z	h	p
o	o	d	h	j	z	y	e	l	d	n	z
d	i	o	b	o	v	a	v	g	a	a	u
a	m	n	l	i	o	l	n	k	ch	m	r
z	r	d	x	p	b	s	x	h	l	o	g
ch	u	c	m	v	n	g	u	e	v	sh	ch





**Bilim olish uchun quyidagi talablarga rioya qilish kerak:**

- bilim egallahash yo‘lidagi qiyinchiliklardan qo‘rqmaslik;
- o‘z ustida muntazam ishlash;
- ustozlarni hurmat qilish;
- salomatlikka e’tibor qaratish;
- odob-axloqli bo‘lish;
- bergen va’dasini bajarish;
- ayyorlik qilmaslik;
- bilim egalarini hurmat qilish;
- o‘rtoqlarining yutuqlariga havas qilish va ularga ergashish.



**Bilasizmi?**

Aflatundan «Shuncha ilmni egallahash uchun qancha vaqting ketdi?» – deb so‘radilar. U bo‘lsa: «Vaqtni bekorchi narsalar va o‘yin-kulgiga emas, balki bilim olishga sarflash zarur», – deb javob bergan ekan.



## Oila davrasida



1. Quyidagi rasmlarga e'tibor bilan qarang. Mukammal bilim olishingiz uchun Vatanimizda qanday sharoitlar yaratilgan?
2. Siz qanday to'garaklarga qatnaysiz?
3. Ustozlaringiz sizni xatolaringiz uchun koyiganida siz xafa bo'lasizmi?
4. Ustoz qachon xursand bo'ladi, deb o'ylaysiz?






## 7-MAVZU: KIM BO'LSAM EKAN?



### Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar


1. Qanday kasblarni bilasiz?
2. Katta bo'lsangiz kim bo'lmoqchisiz?
3. Milliy hunarmandchilik haqida eshitganmisiz? U to'g'risida nimalarni bilasiz?
4. «Hunar – hunardan rizqing unar» degan maqolni eshitganmisiz? Ushbu maqolni quyidagi rasmlar orqali tushuntiring.





5. Rasmlardagi kasblar haqida ma'lumot bering.
6. Qaysi kasbni tanlagan bo'lardingiz va nima uchun?

### Hikmat





## Oila davrasida

1. Oila a'zolaringizning qaysi kasbda faoliyat yuritishlari haqida so'zlab bering.
2. Quyida berilgan rasmlar qaysi hunarmandchilik turiga kirishi ni oila a'zolaringizdan so'rab biling.
3. Milliy hunarmandchilikning qaysi turlariga qiziqasiz va nima uchun?





## 8–9-MAVZULAR: VAQTING KETDI – BAXTING KETDI

### Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar



1. Vaqt ni o'lchash mumkinmi?
2. Tug'ilganingizdan beri qancha vaqt o'tganligini bilasizmi?
3. Siz shu yoshga kirguningizcha qanday muvaffaqiyatlarga erishdingiz?
4. Biror-bir yutuqqa erishishingizda kimlar sizga yordam berdi? Muvaffaqiyatga erishishingiz uchun qancha vaqt ketdi?
5. «Vaqtni ortga qaytarib bo'lmaydi» deganda nimani tushunasiz?

Gulyora xalqaro fan olimpiadasida g'oliblikni qo'lga kiritgani uchun jurnalistlar uni savolga tuta boshladilar.

– Bunday muvaffaqiyatga erishish uchun qancha vaqt tayyorgarlik ko'rdingiz? – so'rashdi havas bilan.



### Ijodiy faoliyat



Sizning fikringizcha, Gulyora nima deb javob bergan bo'lishi mumkin?



Gulyora tinimsiz tayyorgarlik ko'rganligi va kun tartibiga qat'iy roya qilganligini gapirdi. «Vaqtimni to'g'ri taqsimlashimda ota-onam va ustozlarimning maslahatlariga quloq soldim», – deb qo'shib qo'ydi.



### Ijodiy faoliyat

1. Gulyora «vaqtini rejalashtirish» deganida nimani nazarda tutdi?
2. Sizning vaqtingiz rejalashtirilganmi?
3. «Vaqtni to'g'ri taqsimlash» va «vaqtini rejalashtirish» deganda nimani tushunasiz?
4. «Vaqt va baxt» so'zlarining bir-biriga qanday aloqasi bor?
5. Quyida berilgan hikmatni matn bilan bog'lang.



### Hikmat



Vaqt inson sarflashi mumkin bo'lgan narsalarning eng qadrли-  
sidir. Yo'qolgan vaqtini qaytarib  
bo'lmaydi. Uni umringizni chiroyli  
qiladigan amallarga sarflang.



Olimjon kompyuter o'yinlariga shu qadar berilib ketdiki, mакtabga borish vaqt kelganini sezmay qoldi. Dars qilishga ham ulgurmadidi. Natijada...



### Ijodiy faoliyat

1. Hikoyani davom ettiring.
2. Olimjon nimani boy berdi?
3. Sizda ham shunday holatlar bo'lganmi? Siz qanday yo'l tutgansiz?

### Oila davrasida

1. Vaqtingizni shunday taqsimlangki, bunda uy ishlariga qarashish va qo'shimcha dars qilish uchun ham vaqt yetsin.
2. Tartib, intizom va odobning vaqtini to'g'ri sarflashga qanday aloqasi bor?
3. Bo'sh vaqt qanday paydo bo'ladi? Uni qanday sarflash kerak?
4. «Band bo'lishdan avval bo'sh vaqtning qadriga yet!» degan hikmatning mazmunini oila davrasida muhokama qiling.



## 10–11-MAVZULAR: EHTIYOTKORLIK



### Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar

1. Qanday holatlarda birinchi tibbiy yordam ko'rsatiladi?
2. Bexosdan qo'lingizni kesib olsangiz yoki yiqlisangiz, biror joyingiz shilinsa nima qilasiz?
3. Qanday joylarda cho'milish mumkin emas?



### Ijodiy faoliyat

1. Berilgan jadvalni daftaringizga chizing va uni to'ldiring.

Pichoq bilan qanday ishlash kerak?	
Qaychini ishlatganda qanday qoidalarga amal qilish kerak?	
Yelimdan foydalanganda nimalarga e'tibor qaratish lozim?	
Elektr jihozlaridan qanday foydalanish kerak?	
Rangli bo'yoqlardan foydalanganda nimalarga e'tibor berish zarur?	

2. O'quv qurollaridan foydalanishda qanday qoidalarga riosa qilish kerak?





3. Berilgan so'zlarni bir-biriga ulab maqol hosil qiling.  
Hosil bo'lgan maqollarni izohlashga harakat qiling.

- Yetti o'lchab,  
boshing bilan  
o'yla.
- Qo'ling bilan  
qilar ishni  
shoshganning  
ishi bo'sh.
- Puxtaning ishi besh,  
bir kes.



Yoz kunlarining birida Sardor suv bo'yida do'stlari bilan o'y-nar edi.

- Kim uzoqqa suzish o'ynaymizmi? – dedi u.
- Yo'q, mumkin emas. Kattalarning nazoratisiz bunday qili-shimiz yaxshilikka olib kelmaydi, – javob berdi Akmal.
- Men o'ynayman, – suvga qarab chopib ketdi Jamshid. Uning ketidan Sardor va Alisher ham yugurishdi. Hammasi birin-kekin suvga tushib, suzib ketishdi.
- To'xtanglar! – degancha Akmal qutqaruvchilar tomon shoshildi.

### Ijodiy faoliyat



Nima deb o'ylaysiz, Akmal nima uchun qutqaruvchilar tomonga yugurgan bo'lishi mumkin?



Akmal qutqaruvchilar oldiga kelganida bolalar taqiqlangan belgidan o'tib bo'lgan edilar. Sardor bir joyda turib qolgan, qo'llari bilan tartibsiz harakat qilayotgan edi. Jamshid unga yordam bermoqchi bo'lib qo'lini uzatdi, lekin u ham Sardor kabi bir joyda harakatlanib qoldi. Ular har qancha urinishmasin, joylaridan siljiy olishmasdi. Tezlik bilan yetib kelgan qutqaruvchilar bolalarni qayiqqa oldilar. Bu orada Sardor ancha suv yutgan, hushi o'zida emas edi.

Sardorni qirg'oqqa olib chiqib, chalqancha yotqizdilar. Unga sun'iy nafas berdilar. Ko'ksini uqaladilar, bu orada «Tez yordam» xodimlari yetib kelishdi...



### Oila davrasida

1. Hikoyaga sarlavha qo'ying va uni yakunlang.
2. Akmal nima uchun «Yo'q, mumkin emas. Kattalarning nazoratisiz bunday qilishimiz yaxshilikka olib kelmaydi», deb aytdi?
3. Birinchi yordam qanday ko'rsatilar ekan?
4. Bu noxush holatning oldini olish mumkin edimi?





### Ijodiy faoliyat



1. Rasmlarga qarang va ehtiyyotkor bo'lishning qanchalik zarur ekanligi haqida fikringizni yozing.
2. Ehtiyyotkor bo'lish uchun nimalarni bilish kerak?



## 12–13-MAVZULAR: KITOB – BILIM MANBAYI



### Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar

1. Sizning uyingizda qancha kitob bor?
2. Sizga sovg'a qilingan kitoblarning hammasini o'qib chiqqanmisiz?
3. Siz o'zingiz tahsil oladigan maktabning kutubxonasiga a'zomisiz?
4. Qanday kitoblarni o'qishni yaxshi ko'rasisiz?
5. «Kitob o'qish madaniyati» deganda nimani tushunasiz?

«Atrofimizdagи olam» darsida o'qituvchi sayyoralar haqida ma'lumot to'plash vazifasini berdi. Aziza va Fazilat kutubxonadan mavzuga oid kitob olmoqchi bo'lishdi.

– Bu kitobni o'qish zalida o'qishingiz kerak, uyga berilmaydi, – dedi kutubxonachi.

Qizlar kitobni oldilar-da, orgadagi bo'sh partaga borib o'tirdilar. Kitobning nomi «Olam haqida bir olam ma'lumot» ekan. Kitobni varaqlar ekanlar, qizlar hayajonlarini yashira olmay bir-birlariga to'lqinlanib gapirar edilar.

Kutubxonachi qizlarga shovqin qilmaslik, boshqalarga xalaqit bermasliklarini aytди.

Qizlar qulog solmadilar. Kutubxonachi qizlarning qo'lidagi kitobni olib qo'ydi.






– Sizlar kutubxonada o‘zini tutish odobini bilmas ekansizlar, kutubxonada hech kim yo‘q paytida kelasizlar, – dedi kutubxonachi.

Qizlar kutubxonadan xafa bo‘lib chiqib ketishdi. «Kutubxonanligiga boshqa kelmaymiz, kitoblaringiz ham kerak emas», – dedi Aziza. Fazilat Azizaning yengidan tortib: «Jim, uyat bo‘ladi, ustozimizga shikoyat qiladilar», – deb, uni eshik tomon yetakladi.

Aziza kutubxonachi chalg‘ib turganida bildirmasdan kitobning o‘ziga kerakli sahifasini yirtib olgan edi.

### Ijodiy faoliyat

1. Aziza va Fazilat qanday xatoga yo‘l qo‘yishdi?
2. Qizlar o‘zlarini kutubxonada qanday tutishlari kerak edi?
3. Siz kutubxonada qanday qoidalarga riosa qilasiz va nima uchun?
4. Hikoyaga nom qo‘ying. Uning qanday tugashini xohlardinigiz? Hikoyani o‘zingiz xohlagandek tugating.
5. Azizaning harakatiga baho bering. U to‘g‘ri ish qildimi?
6. Kitobga qanday munosabatda bo‘lish kerak? Fikringizni asoslang.





## Oila davrasida

1. Quyida berilgan maqollardagi tushirib qoldirilgan so‘zlarni toping. Mazmunini oila a’zolaringiz bilan muhokama qiling.
2. Kitobga qanday munosabatda bo‘lish kerakligi haqida qoidalar yozishga harakat qiling. Ularni kundalik faoliyatizingizga singdiring.

Kitob – \_\_\_\_\_ qayrog‘i.

Kitob – xazina, \_\_\_\_\_ – boylik.

Kitobni \_\_\_\_\_ kerak, tafakkurning bu qasriga \_\_\_\_\_ bilan kirmoq lozim.


**Foydalanish uchun so‘zlar:** bilim, e’zozlash, aql, ehtirom.



## Bilasizmi?

Varaqalari buklab bir-biriga biriktirilgan muqovali kitoblar  
Qadimgi Rimda paydo bo‘lgan.

Mamlakatimiz hududidagi eng qadimgi yozma manba  
«Avesto» hisoblanadi.





O'zbekistonda shunday bir kitob bor-ki, uning nusxasi dunyoda yagona. Bu muqaddas Qur'oni karim kitobidir. Bu kitob Toshkent shahridagi Mo'yи Muborak madrasasi kutubxona-muzeyida saqlanadi.

Dunyodagi eng qadimiy kitob Priss papirusidir. U papirusni 1839-yili Fivadan topgan Emil Priss sharafiga shunday nomlangan.

Yevropada kitoblar juda qimmat bo'lgan. Bundan taxminan 300 yilcha avval ba'zi kutubxonalarda kitoblar o'g'irlanmasligi uchun zanjirga bog'lab qo'yilgan.



## KITOB MUTOLAA QILISH

- asabni tinchlantiradi;
- dunyoqarashni kengaytiradi;
- ijodkorlik qobiliyatini yaxshilaydi;
- hayotdagi maqsadni anglashga va qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi;
- xotira va fikrlash qobiliyatini yaxshilaydi;
- so'z boyligini oshiradi;
- chet tilini o'rganishni osonlashtiradi;
- tinglash qobiliyatini rivojlantiradi.



## 14–15-MAVZULAR: ELEKTRON AXBOROTLAR





### Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar

1. Bilimlaringizni boyitish uchun elektron axborot vositalaridan foydalanasizmi?
2. Elektron manbalar haqida eshitganmisiz? Ulardan qanday foydalaniadi?
3. Sizga elektron axborot vositalaridan foydalanishda kim yordam beradi?
4. Siz o'zingiz foydalanadigan elektron vositalar nomini ayting.



Bolalar, meni taniyapsizlarmi? Ha, men kompyuter buvangiz bo'laman. Men 1946-yilda Amerika Qo'shma Shtatlarida tug'ilganman. Dastlab menning vazifam faqat raqamlarni hisoblash bo'lgan.





Biz to'rt avlodga egamiz. Hozirgi siz taniydigan evaralarim juda uddaburon. Ular nafaqat hisoblash, balki xotiralarida katta-katta ma'lumotlarni jamlash amallarini bajara oladilar.

Zavodlar, fabrikalar, samolyotlar, turli mashinalarni boshqara oladilar. Bilasizlarmi, ular yana gapira oладilar, rasm chizadilar, musiqa ham yozadilar, xullas, ularning imkoniyatlari juda katta. Biz inson aqli va mehnatining mahsulimiz.


Bolajonlar, bilasizlarmi, men sizlarga avlodimizning eng yosh kompyuterlarining yaxshi odatlarini aytdim. Lekin ularning imkoniyatlardan to'g'ri foydalanmasangiz, ular sizlarni o'zlariga qaram qilib qo'yishlari mumkin.

Qanday qilib deysizmi? Hozir men sizlarga Olimjon va Salimjon haqidagi bir hikoyani aytib beraman.

\* \* \*

Olimjon ingliz tili darsidan uyga berilgan vazifani bajarish uchun kompyuterini yoqdi. Olimjon dars qiliishi uchun zarur bo'lgan fayllarni ochdi. Kompyuterni Internet tarmog'iga uladi. Elektron kitobni ochib, uyga berilgan matnni qulqchinlarni taqib eshita boshladi. Matnni bir necha marotaba qaytardi. So'ng matnni o'qib audio shaklida yozdi-da, yana qayta eshitdi. Yangi so'zlarni lug'at daftariga ko'chirdi. Berilgan savol-larga javob topdi.





Shu kuni Salimjon ham ingliz tilidan uyga berilgan vazifani bajarish uchun kompyuterini yoqdi. Kompyuterdagi o'yinlarga berilib, uy vazifalarini unutdi. Ertasi kuni ustozisi: «Nima uchun uyga berilgan topshiriqlarni bajarmading?» – deb uni savolga tutdi. Salimjon qizarib, indamay turdi.



## Ijodiy faoliyat

1. Tushirib qoldirilgan so'zlarni toping.  
Men ... yilda Amerika Qo'shma Shtatlarida tug'ilganman.  
Biz inson ... va ... mahsulimiz.
2. Siz kompyuterdan qanday foydalansiz?
3. Kompyuterdan foydalanishda qanday tartibga rioya qilish kerak?
4. Kompyuterdan foydalanishning qoidalarini ishlab chiqing. Har bir qoidani nima uchun taklif qilayotganingizni tushuntiring.





## Bilasizmi?



Men dastlab ana shunday ko'rinishda bo'lganman.  
Og'irligim 27 tonna bo'lган.  
Agar bir tonna 1000 kilogramm bo'lsa, men necha kilogramm  
bo'lganligimni topib ko'ring-chi?


## Oila davrasida



1. Hikoyalarga nom qo'ying.
2. Elektron vositalar uy vazifalarini bajarishingizda sizga qanchalik yordam beradi?
3. Sizning yoshingizda kompyuterda qancha vaqt o'tirish mumkinligini oila a'zolarингиздан so'rab biling.
4. Quyidagi matn asosida 41-betda berilgan rasmlarni izohlang:  
«Ularning imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanmasangiz, ular sizlarni o'zlariga qaram qilib qo'yishlari mumkin».
5. Kompyutering zararli ta'siridan qanday himoyalanish mumkinligi haqida kattalardan so'rab biling.



## 16–17-MAVZULAR: KIYINISH MADANIYATI



### Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar

1. Kiyimlar qanday paydo bo'lganligini bilasizmi?
2. Yozda va qishda kiyiladigan kiyimlarni bir-biridan ajrata olasizmi?
3. Faraz qiling, siz yozda dam olishga tog' yonbag'riga chiqdindiz. Kechki payt salqin tushib qoldi. Gulxan faqat qo'llaringizni isitadi. Issiq kiyimlaringiz yo'q. Chodirda uqlash uchungina imkoniyat bor. Isinish uchun nima qilasiz?
4. Topishmoqlarning javobini toping.

To'rt yonida to'rtta oy,  
Boshimga berar chiroy.

Bog'lab qo'ysang – yuradi,  
Yechib qo'ysang – turadi.



Mening ismim Doniyor, 6 yoshli singlim bor. U hali bog'chaga boradi. Singlim menga «U kim? Bu nima? Qachon? Qanaqa?» degan savollarni beraveradi. Nimani ko'rsa, shu haqida so'raydi. Bugun onajonim uni bog'chaga borish uchun kiyintirayotgan edilar. «Men mana bu ko'ylagimni kiyaman», – deb yozgi ko'ylagini ushlab rosa xarxasha qildi. Onajonim: «Hozir kunlar salqin bo'lib qoldi, uni yozda kiyasan. Bu ko'ylak yupqa, hozir qalinqoq ko'ylak kiyish kerak», – dedilar. Singlim esa: «Nega yupqa?», «Nega kiyim kiyish kerak?», «Kiyimlar nega har xil?», «Nega men akamdek kiyinmayman?» – deb onamni





savollarga ko'mib tashladi. Onam uning savollariga javob berishdan charchadilarmi yoki mening bilimimni sinamoqchi bo'ldilarmi, «Akangdan so'ra», deb qoldilar. Shunda men singlimga: «Sen bog'changga borib kelguningcha men kiyimlar haqidagi barcha savollaringga javob topib qo'yaman», – dedim.

Men quyidagi ma'lumotlarni topdim. Siz yana nimalarni qo'shimcha qila olasiz?

\* \* \*

Kunlarning isib yoki sovib ketishi, turli hasharotlardan himoyalanish zarurligi sababli insonlar o'tasida kiyim kiyishga ehtiyoj paydo bo'lgan.

Odamlar yer yuzining turli joylarida yashaganliklari uchun ularning kiyimlari o'sha joyning iqlimiga mos bo'lgan.

Poyabzallar esa keyinroq paydo bo'lgan. Vaqt o'tgani sari odamlar kiyimlarini turli bezaklar bilan bezaganlar.

Kiyimlar ularga bo'lgan ehtiyojdan kelib chiqib paydo bo'lgan. Shuning uchun ham yer yuzidagi har bir xalqning kiyimi turlichay o'ziga xos.





Millatidan qat'i nazar hamma odamlar kiyadigan kiyimlar bor. Bilasizmi, turli sohada ishlaydigan kishilarning ham o'z maxsus kiyimlari bo'lar ekan. Ularning kiyimlari ish faoliyatlarini amalga oshirishga yordam beradi.





Yana bayram va tantanalarda  
kiyiladigan kiyimlar ham bo'ladi.



### Oila davrasida



1. Hikoyalarga nom qo'ying.
2. Siz Doniyorga kiyimlar haqida yana qanday maslahat bera olasiz?
3. «Kiyimlaringiz sizning tartibingiz haqida ma'lumot beradi» deganda nimani tushunasiz? «Kiyimingiz bashang bo'lmasa-da, ozoda bo'lsin» deganda-chi?



## Ijodiy faoliyat

1. «Madaniyat» deganda nimani tushunasiz?
2. Kiyim tanlayotganda nimalarga e'tibor berish kerak?
3. «Kiyim va poyabzal kiyish madaniyati» deganda nima nazarda tutiladi?

Maktabimizda bizlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish uchun tibbiyot xonasiga olib boshirdi.

– Yassioyoqlikni tekshiramiz, poyabzallaringizni yeching, – deyishdi shifokorlar. Biz birin-ketin oyoq kiyimizni yecha boshladik. Tibbiyot xonasi bir zumda rezinaga o'xshash yoqimsiz hid bilan to'ldi. Maktabimiz hamshirasi: «Krossovkalar, sport oyoq kiyimlarini kun davomida kiyib yurib bo'lmaydi», – deb bizlarni koyidi. Biz esa hamshira opaning gaplarini eshitib xijolat bo'ldik.



## Ijodiy faoliyat

1. Oyoq kiyimining inson hayotiga ta'siri bormi?
2. Maktab hamshirasi «Krossovkalar, sport oyoq kiyimlarini kun davomida kiyib yurib bo'lmaydi», deganida nimani nazarda tutdi?
3. Oyoq kiyimini kiyishning qanday tartib-qoidalari bor?



## Birgalikda bajaramiz



### Guruhlarga bo‘lining.

1-guruh

Rasmlarga e’tibor bilan qarang va quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1-savol. Quyidagi rasmdan bayram va tantanalarda kiyiladigan yoshingizga mos kiyimlarni ajrating. Ularga mos oyoq kiyim tanlang.





2-savol. Mos javobni toping.

1	Maktab kiyimi	a			
2	Sport kiyimi	b			
3	Bayram va tantanalar kiyimi	d			
4	Kundalik kiyim	e			
5	Tungi kiyim	f			



### 2-guruuh

Rasmlarga e'tibor bilan qarang va quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1-savol. 49-betdagи rasmdan yoshingizga mos bo'lgan kundalik kiyiladigan kiyimlarni ajrating. Ularga mos oyoq kiyim tanlang.



2-savol. Mos javobni toping.

1	Sport poyabzali	a	
2	Bayram va tanta-nalarda kiyiladigan poyabzal	b	
3	Kundalik kiyiladigan poyabzal	d	
4	Uyda kiyiladigan poyabzal	e	
5	Maktabga kiyiladi-gan poyabzal	f	

Bilasizmi?



### YAXSHI ODAT

Ko'chaga chiqishdan avval egningizdagи kiyimingizga qarab, «Shunday holda ko'chaga chiqsam bo'ladimi?» deb o'zingizga savol bering. Qayerga bormoqchi bo'lsangiz, shunga yarasha kiyinib ko'chaga chiqing. Ko'chada sizni hamma ko'radi va didingizga baho beradi.



## 18–19-MAVZULAR: OZODALIK – INSON KO'RKI




### Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar

1. «Shaxsiy gigiyena» deganda nimani tushunasiz?
2. Nima uchun kattalar «Qo'llaringizni ovqatdan oldin ham, ovqatdan keyin ham yuvingga», deb ta'kidlashadi?
3. Qo'llaringizni qancha vaqt davomida yuvasiz?
4. Shaxsiy buyumlarni tartibli va ozoda saqlash uchun nima qilish kerak?



Olimjon maktabdan kel-di-da, darhol oshxonaga chopdi. Uning qorni rosa och qolgan edi. Stol ustidagi nonni olib, bankada tur-gan sovuq choyni piyolaga ham quymasdan ichdi.




### Ijodiy faoliyat

1. Olimjonning harakatlarini baholang.
2. Sizda ham shunday holatlар bo'ladimi?
3. Hikoyani davom ettiring.



Ertasi kuni Olimjon mакtabga bora olmadi. Qorni og'ridi. Betob bo'lib yotib qoldi.



### Ijodiy faoliyat



1. Hikoyaga sarlavha qo'ying.
2. Qoldirilgan darslarni o'zlashtirish uchun Olimjon nima qilishi kerak?
3. Olimjon betob bo'lib qolgach, nimalarni o'tkazib yubordi?
4. Olimjon bilan sodir bo'lgan hodisaning oldini olish mumkin edimi?
5. Shaxsiy gigiyena nima uchun zarur?



## SHAXSIY GIGIYENA

Uyingizni ozoda tuting



Qo'llaringizni va tanangizni tez-tez yuvung

Toza ichimlik suvidan foydalaning



Mevalarni yeyishdan avval yuvishni unutmang



Kiyimlaringizni toza tuting




### Hikmat





Ko'chadan keldingizmi, qo'llaringizni sovunlab yuvishni unutmang!



### Oila davrasida



1. Rasmlar asosida hikoya tuzing.
2. 54-betda berilgan hikmat bilan rasmlarni bog'lab tushuntiring.
3. Qo'llaringizni to'g'ri yuvishni mashq qiling, o'zingizdan kichiklarga ham o'rgating.



## 20-MAVZU: OZODALIKNI XONAMIZDAN BOSHLAYMIZ



### Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar

1. Xonangizni tartibga solishda ishni nimadan boshlaysiz?
2. Kitob-daftarlaringiz va o'quv qurollaringizni qanday saqlaysiz?
3. Kitob-daftarlaringiz ustiga nima uchun g'ilof kiydirasiz?
4. Kiyimlaringizni javonga qaysi tartibda taxlaysiz?
5. Kiyimilgichdan foydalanganingizda birinchi bo'lib nimani osib qo'yasiz?

Men bir kuni Bilmasvoyning uyiga dars qilish uchun bordim. Uning xonasi juda betartib ekan.

– Dars tayyorlashdan avval xonani tartibga keltirishimiz kerak, – dedim norozi ohangda.

– Bu xona bitta meniki emas, singlim ham bor, narsalarini o'zi yig'sin! – javob berdi Bilmasvoy.


– Buvim kattalar kichiklarga o'rnak bo'lishi kerak, deb ay-tadilar. Kel, men senga yordam beraman, – dedim.

Ishni nimadan boshlaganimizni aytaymi?



### Hikmat







Ishimizni shkafdagи kiyimlarni taxlashdan boshladik.  
Paypoqlarning poyini topib, taxladik. Kiyimlarni ilgichga osdik.  
Siz ham bajarib ko'ring.





Shimlarni taxladik va ularni ham kiyimligichga ildik.



Maykalar va sviterlarni taxlab,  
javonga tartib bilan joylashtirdik.



Xonani tozalab chiqdik. Kitob javonini ham tartibga keltirdik.  
Endi dars qilsak bo'ladi.



Avvalgi holat

Tartibga keltirilgandan  
keyingi holat**Oila davrasida**

1. Berilgan rasmlar asosida xonangizni tartibga keltiring.
2. «Tartibli joyda ish unadi» deganda nimani tushundingiz?
3. E'tibor bergen bo'lsangiz, biz matnda oyoq kiyimlar haqida to'xtalmadik. Ularni qanday tartibga keltirish haqida o'zingiz mustaqil so'zlab bering.



## 21-MAVZU: INSON ODOBI BILAN GO'ZAL



### Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar

1. «Odobni odobsizdan o'rgan» deganda nimani tushunasiz?  
Odobsizdan ham odob o'rganish mumkinmi?
2. Odob insonni qanday qilib go'zal qilishi mumkin?
3. Odob, tartib, intizom, andisha kabi so'zlarning mazmunan bir-biriga yaqin tomonlari bormi?
4. Barcha uchun majburiy bo'lgan odob qoidalarini kim o'ylab topgan bo'lishi mumkin?
5. Siz yana qanday odob qoidalarini bilasiz?

Avtobus navbatdagi bekatda to'xtab, yo'lovchilarni tushirdi. Chiqayotganlar orasida ozoda kiyangan, do'ppisi tagidan jingalak sochlari ko'rinishib, yuziga yanada chiroy berib turgan qiz e'tiborimni tortdi.

Kelgusi bekatda bir ayol qo'lida tugun bilan avtobusga chiqdi-da, boyagi qizchaning oldiga borib o'tirdi.

– Voy, namuncha badbo'y bo'ilmasa! Tog'orangiz bilan kiyimlarimni kir qilyapsiz, – deya burnini jiyirib o'rnidan turib ketdi qiz.

– Qizim, bu ovqatning hidi, – dedi ayol xafa bo'lib.

– Bunday badbo'y ovqatni yeish mumkinmi? – jerkib berdi qiz.

– Tashqi ko'rinish ba'zan aldamchi bo'lar ekan-da, – deb qo'ydi o'ziga o'zi ayol.





## Ijodiy faoliyat



1. Hikoyani yakuniga yetkazing.
2. Qizchaning harakatlariga baho bering.
3. Ayol «Tashqi ko'rinish ba'zan aldamchi bo'lar ekan-da» deganda nimani nazarda tutdi?
4. Rasm asosida matnga mos so'zlarni qo'ying.

1. Jamoat joylarida telefonda ... gaplashish kerak.



2. Avtobusning orqa eshididan ..., oldi eshididan .... .



3. Birinchi bo'lib ... yo'l bering.

4. Kattalarga qo'lini ... qo'yib salom beriladi.

5. Kattalarining gapini .... .

6. Har qanday holatda ... bilan harakat qiling.

7. .... hammaga namoyish qilmang.

8. Ko'p ... dan ko'ra ko'p tinglash yaxshi.

9. Yopiq eshikni ... kerak.





10. Birovning uyiga ... mumkin emas.
11. ... birovning narsasini olib bo'lmaydi.
12. Odamlarga doim yaxshilik bilan ... kerak.
13. Va'da bergandan keyin ... kerak.
14. Qo'lingdan kelsa ... qil. Kelmasa ... qilma.
15. Biror joyda navbatda turish zarur bo'lsa ... rioya qil.



**Foydalanish uchun so'zlar:** chiqiladi, yomonlik, past ovozda, vazminlik, gapirish, kattalarga, taqillatish, bo'lmaning, mo'ralash, tartibga, tushiladi, bajarish, yaxshilik, ko'ksiga, fe'lingizni, so'roqsiz, munosabatda bo'lish.



### Oila davrasida

1. Yuqorida berilgan qoidalarga amal qilish uchun nima qilish kerak?
2. Siz yana qanday qoidalarni qo'shgan bo'lar edingiz?
3. «Aql – boylik, odob – aqlning libosi» maqolining mazmunini oilangizdagilar bilan muhokama qiling.



## KO'CHADA YURGANINGIZDA USHBU QOIDALARGA AMAL QILING



Kattalarga yo'l bering



Kattalarga joy bering

Baland ovozda  
gaplashmangAtrofni iflos  
qilmangBirovni qo'lingiz bilan  
ko'rsatmang



Tupurmang,  
og'zingizdagi  
ovqat bilan  
gapirmang

Birovning gapini  
bo'l mang

Barchaga  
do'stona munosa-  
batda bo'ling



Ichimliklar va  
qo'lingizdagi ovqat  
bilan do'konga kir-  
mang va transportga  
chiqmang

Aksa urganda,  
yo'talganda  
og'zingizni qo'lingiz  
bilan berkiting.  
O'zingiz bilan  
dastro'mol olib yuring

Doimo ochiq  
chehrali bo'ling



## 22-MAVZU: MEHR-OQIBAT – INSONIY FAZILAT

### Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar



- Oilangizdagagi katta yoshdagilar sizga «Bir-biringizga mehrli bo'linglar» deb aytishganmi?
- «Mehrli bo'lish» deganda nimani tushunasiz?
- Siz matabdan uyga borganingizda oilangizdagilarga birinchi bo'lib nima deysiz?
- Oilangizdagilarga qanday yaxshi so'zlarni aytasiz?

Ikki aka-uka bor ekan. Ular dehqonchilik bilan shug'ullanishar ekan. Kuz kelib aka-uka hosilni yig'ib olishibdi-da, teng ikkiga bo'lishibdi.

Kech kirgach, uka akasiga bildirmay uyidan chiqib, to'g'ri omborxonaga boribdi. Omborxonada mo'ljallagan ishini bitirib uyiga xursand bo'lib qaytibdi va xotirjam yotib uxbabdi.



### Ijodiy faoliyat



- Nima deb o'ylaysiz, uka nima uchun omborxonaga borgan?
- Siz ukaning o'rnidagi nima qilgan bo'lar edingiz?



Tun yarmidan oqqanda akasi ukasiga bildirmay uydan chiqibdi va u ham omborxonaga boribdi. Mo'ljallagan ishini qilib, aka ham xursand bo'lib o'rniغا kelib yotibdi.

Ertasi kuni ertalab aka-ukalar o'zlarining donlarini bozorga olib borib sotibdilar. Qarangki, akaning ham, ukaning ham donlarining miqdori teng ekan. Bu holdan uka qat-tiq ranjib, qozining oldiga boribdi. U yerda xuddi o'zi kabi donlar teng bo'lganligidan ranjib kelgan akasini uchratibdi.



### Ijodiy faoliyat

1. Aka-uka bir-biridan yashirinchada omborxonada nima ish qilgan bo'lishlari mumkin?
2. Nima uchun aka-uka bir-biriga bildirmasdan uydan chiqibdi?
3. Hikoyani davom ettiring.
4. Aka-ukalar nima uchun bir-biridan ranjigan bo'lishi mumkin?
5. Qozi qanday hukm qiladi deb o'ylaysiz?



Qozi aka-ukaning da'vosini birma-bir tinglabdi va ularga: «Sizlarga tarbiya bergen ota-onangizga rahmat!» – debdi. Chunki uka: «Akamning to'rt bolasi bor, men esa hali uylan-maganman, donni teng bo'lish adolatdan bo'lmaydi. Yarmini akamga qo'shib qo'yay», – deb, donidan akasining doniga qo'shib qo'ygan ekan. Akasi esa: «Men oilaliman, ukam uylanishi kerak, to'y qilishga pul kerak, donni teng bo'lish adolatdan bo'lmaydi», – deb, o'zining donidan ukasining doniga qo'shib qo'ygan ekan.




### Ijodiy faoliyat

1. Hikoyaga sarlavha qo'ying.
2. Siz ukangiz yoki akangiz uchun o'zingizga zarur bo'lgan narsadan voz kecha olasizmi?
3. «Sizlarning eng yaxshingiz qarindoshlar holidan xabar olib turvchingizdir» degan hikmat mazmunini oila a'zolaringizdan so'rang.
4. Hikoyada aka-ukalar o'tasidagi munosabatni mehr-oqibat deyish mumkinmi?
5. Mehr-oqibatga misollar keltiring.



## 23–24-MAVZULAR: QARI BILGANNI PARI BILMAS



### Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar

1. «Qarisi bor uyning parisi bo‘ladi» deganda nimani tushunasiz?
2. Nima uchun oilangizdagilar tadbir o’tkazmoqchi bo‘lsalar, kattalar bilan maslahat qilish kerak deyishadi?
3. Siz biror-bir ishni boshlashdan avval kim bilan maslahatlashasiz?





## AVGUSTNING O'G'RILIGI

Maktabdan qaytgan Umidjon darhol oyisining yoniga boribdi-da: «Oyijon, nega 12 oydagи kunlarning sanog'i har xil? Ayniqsa, fevral kunlari boshqa oylarnikiga qaraganda juda kam. Buning sababi nimada?!» – deb so'rabdi. Umidjonning oyisi biroz o'ylanib turdi-da: «Bilmasam, o'g'lim. Bu savolning bilan meni ham qiziqtirib qo'yding. Rostdan ham, nega fevrалning kunlari boshqa oylarnidan kam? Bu savolingga javobni, yaxshisi, buvangdan borib so'ragin», – debdi. Sabri chidamay, betoqat bo'lган Umidjon bog'da o'tirgan buvasining yoniga borib salom bergach, so'rabdi: «Buvaljon, siz fevral oyida tug'ilgansiz. Nega bu oyning boshqa oylarga qaraganda kunlari kam?» Buva nabirasining salomiga alik olib, peshonasidan o'pib qo'ydi-da, jilmayib, shunday dedi: «O'zimning ziyrakkina nabiram. Bundan bir necha yillar avval, xuddi sening yoshingda men ham shu savolga javob topaman, deb juda qiziqqan edim. Sababi, men 29-fevral kuni tug'ilganman. Tengdoshlarim tug'ilgan kunini har yili nishonlasa, mening tavallud kunim to'rt yilda bir marotaba bo'lardi. Lekin ota-onam meni xafa bo'lmasin deya, 28-fevral kuni tug'ilgan kunim bilan tabriklab, nishonlab berishardi. Men «Tug'ilgan kunim uch yil qayerga g'oyib bo'lar





ekan-a?» – deb hayron bo'laverardim. Bir kuni bobom menga bir ertak aytib berdilar. Senga hozir shu ertakni so'zlab beraman. Bu ertak sening barcha savollaringga javob topishingga yordam beradi. Endi yaxshilab o'tirib olgin-da, diqqat bilan tingla!

Taqvimlar mamlakatida Yil janobining 12 ta farzandi bo'lib, to'ng'ichi Yanvar, eng kichigi esa Dekabr ekan. Yanvar qulflarit yasashni xush ko'rар, eski yilga qulf ilib, yangi yilni ochib berarkan. Fevral rosa uyquchi bo'lib, uni har kuni zo'rg'a uyg'otishar, Mart esa oylar ichida

eng ijodkori ekan. Kamalakdan rang olib daraxtlarni yashilga, chechaklarni nim pushtiga, osmonni esa havorangga bo'yashni yaxshi ko'rarkan. Uning ukasi Aprel ham akasi kabi yomg'irni, qo'ziqorinni, qulupnayni yoqtirarkan. May esa mevalarsiz yasholmas ekan. Iyun bo'sh qoldi deguncha anhorga cho'milishga keta-verarkan. Iyul bilan Avgust doim bir-biri bilan tortishar, bu a'lochi Sentabrning kitob o'qishiga xalal berarkan. Oktabr tinmay she'r yozib, ularni aka-ukalariga o'qib berishdan charchamas ekan. Noyabrning sevimli mashg'uloti bo'yoqchilik bo'lib, daraxt barglarini erinmay tillarangga bo'yab chiqar ekan. Dekabr kichkina bo'lsa-da, eng cho'rtkesari, «Qolgan ishga qor yog'ar» degan shiorga amal qilar ekan.

Bir kuni Yil janobi hisobidagi 366 kуни qanday qilib teng taqsimlash haqida o'ylab qoldi. Hisob-kitob qilib ko'rsa, 6 oyga 30 kundan, yana 6 oyga 31 kundan to'g'ri kelibdi. Shunda tartibni Yan-






vardan boshlab, birinchi oyni 31, ikkinchi oyni 30 kun deb belgilabdi. Tartib shu tarzda davom etibdi...

Kunlardan bir kun nima bo'libdi-yu, iyul bilan Avgust yana janjallahib qolishibdi. Jahli chiqqan iyul Avgustga qarab:

– Sen mendan kichiksan, buning ustiga, kunlaring menikidan bitta kam bo'lsa, buncha kerilmasang, – debdi.

Avgust xafa bo'libdi. Kechasi bilan ko'ziga uyqu kelmabdi. Qarasa, hamma shirin uyquda emish. Fevralning uyqusi boshqalarnikidan qattiq bo'lgani uchun sekingina borib, uning bir kunini o'g'irlabdi-da, o'zining oyiga qo'shib qo'yibdi. Ertangi janjallarida u akasi iyulga: «Mening kunlarim ham seniki bilan teng», deb maqtanibdi. Buni eshitgan aka-ukalar hayron bo'lgancha o'z taqvimiga qarashganida, Fevralning bir kuni kamayib qolganini bilib qolishibdi. Bundan aka-uka oylarning dili ranjibdi. Avgust o'ylamay qilgan ishidan pushaymon bo'libdi. Lekin ko'chirilgan tunni o'rniqa qaytarib bo'lmabdi. Shu sabab sakkizinch oydan keyingi tartib buzilibdi. Fevral esa uyquchiligidan bir kunidan butunlay ayribildi. Bu ham yetmaganidek, Yil janobi Fevralni tarbiyalash maqsadida: «Agar vaqtida uyg'onmasang, yana bir kuningni kamaytirib qo'yaman», deb shart qo'yibdi. Fevral esa to'rt yilda bir marotabagina bu mashaqqatli ishning uddasidan chiqar, o'z vaqtida uyg'onib, 29 kunga ega bo'lar ekan».

Ertakni hayrat bilan tinglagan Umidjon ko'zlarini katta-katta





ochganicha buvasidan so'radi: «Buvaljon, siz ham Avgustning qilmishidan hech xafa bo'lganmisiz? Axir uni deb tug'ilgan kuningiz to'rt yilda bir marotaba kelar ekan-ku!» Nabirasining bergan savoliga buva jilmayibgina shunday javob qildi: «Rostini aytsam, har yil fevral oyi kelganida Avgustning xudbinligi, o'ylamay qilgan ishidan biroz ranjiyman. Uning birligida o'g'riliqi sababli aka-ukalarining kunlaridagi tartib ham o'zgarib ketgan-da. Lekin Avgust bu ishidan hozirgacha oilasi oldida o'zini aybdor his qilar ekan. Shuning uchun ham u kim bo'lishi-dan qat'i nazar har bir bosayotgan qadami, gapirayotgan gapi, qilayotgan ishi to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini yaxshilab o'ylab, keyin bajarishi kerak».

Nilufar Jabborova





### Ijodiy faoliyat



1. Taqvimlar mamlakatidagi Yil janobining 12 farzandi qanday xislatlarga ega ekan?
2. Yil janobi hisobidagi 366 kunni qanday qilib teng taqsimladi?
3. Avgust nega xafa bo'ldi?
4. Yil janobi Fevralga nima deb shart qo'ydi?
5. Fevral qaysi kamchiligi uchun kunlaridan ayrıldi?
6. «Qariyalar – xonadonimiz fayzi» degan hikmatni yuqoridagi ertak bilan bog'lab tushuntirishga harakat qiling.





## 25-MAVZU: QULOG'IGA QULOQCHIN TAQQAN «QULOQSIZ» BOLA



### Ijodiy faoliyat

1. Rasmlar asosida hikoya tuzing.
2. Bunday voqeaning oldini olish mumkin edimi?
3. Bu vaziyatda qanday qoidalar buzilgan?
4. Yo'l harakati qoidalariga amal qilish zarurmi? Nima uchun?





### Oila davrasida



1. «Bola aziz – odobi undan aziz» degan hikmatni komiks bilan bog'lab tushuntiring.
2. Fikrlaringizni daftaringizga yozing.
3. «Eng zo'r qurol – o'tkir aql, yarog' bo'lsa – donishmandlikdir» degan fikrni oila a'zolaringiz bilan muhokama qiling.



## 26-MAVZU: MAHALLA VA QO'NI-QO'SHNICHILIK



### Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar

1. Kattalardan «Bu qo'shnining haqi» degan iborani eshitganimisiz? Qo'shnining haqi nimada bo'lishi mumkin?
2. Siz yashaydigan uyda qo'shnilar bir-biriga qanday munosabatda bo'lishadi?
3. «Qo'shning tinch – sen tinch» degan maqolni izohlang.

### «GIRGITTON BUVI»NING YAPON NEVARASI

...Bir mahal ayvon tomondan «Girgitton buvi»ning ovozi keldi.

– Hay-hay, girgitton, tegma, tegma yong'oqqa!

Shunday deb ildam keldi-da, qo'limdagи yong'oqlarni olib, pastak devor osha naryoqqa uloqtira boshladi. So'ng xazon orasida yotgan boshqa yong'oqlarni ham enkayib tergancha, devor ortiga tashladi. Buvining bunday «qizg'anchiq»ligiga hayron bo'lib turib qoldim. Nihoyat, to'kilgan yong'oqlar qolmagani ga ishonch hosil qilgach, qo'limdan yetakladi:

– Yuraqol, girgitton, sanga boshqa yong'oq beraman!

Pastak bostirmaga olib kirdi-da, savatda uyilib yotgan yong'oqlardan hovuchlab olib, do'ppimni to'ldirib berdi...



O'tkir Hoshimov



## Ijodiy faoliyat



1. Ushbu hikoyada qanday qadriyatlarimiz tilga olinadi?
2. Bu qadriyatlarning shakllanish makoni qayer?

## MAHALLAGA MAHALLA FUTBOL

Ko'chada maza qilib to'p tepayotgan Adhamni onasi chaqirib qoldi. Bundan norozi Adham xohlamay onasining oldiga yugurdi.

– Mahallaga mahalla futbol o'ynayapmiz. Agar men ketsam, mahallamiz yutqazib qo'yadi!

– Mayli, mana bu chiqindilarni tashlab kelib, o'yiningni davom ettirarsan, – dedi buyruq ohangida onasi. Adham onasidan javob tek-kanidan xursand bo'lib, chiqindi solin-gan xaltani olib yugurib ketdi. Le-kin chiqindilarni yo'l chetidagi ariqqa to'kib yubordi.



## Ijodiy faoliyat



1. Adhamning qilmishini «Mahalla taqdiri mamlakat taqdiri bilan chambarchas bog'liqdir. Mahalla obod bo'lsa, yurt obod, mahalla tinch bo'lsa, yurt tinch bo'ladi» degan hikmat asosida baholang.
2. Adham qaysi qadriyatlarga zarar yetkazdi?



## YONG'IN

Ko'chaning birinchi muyulishida bir ayol yolg'iz o'zi yashar edi. Kechasi uning uyida isitgichning nosozligi tufayli yong'in sodir bo'ldi. Uning uyi hech bir hovliga tutashmagan bo'lsa-da, mahallaning katta-kichi-gi o't o'chirishga shoshildilar. O't o'chiruvchilar kelganda ham odamlar yong'in sodir bo'lgan xonadondan turli narsalarni olib chiqishar, mahalla oqsoqoli ko'rsatgan yerga yig'ar edilar. Odamlar yelkama-yelka turib, bir-birlariga suv uzatishar, kimdir qum separdi. Yong'in bartaraf etildi. Mahallaning ahilligi tufayli ayol va uning hovlisiga katta zarar yetmadi.



### Bilasizmi?

Ma'lum bir mahallada istiqomat qiluvchi odamlar faqat qo'ni-qo'shnichilik rishtalari bilangina emas, balki ichki tartib-qoida, ma'naviy-axloqiy me'yorlar, urf-odatlar, an'analar, umumiy manfaatlar va majburiyatlar bilan ham bog'liqdir. Mahalla hayotining jamoa bo'lib yashash tarzi jamoatchilik tizimini keltirib chiqardi. Mahallaga uning hududida yashaydigan aholi tomonidan saylab qo'yiladigan oqsoqol (mahalla raisi) boshchilik qiladi.



## Ijodiy faoliyat



1. Mahalla aholisini nima birlashtiradi?
2. Mahalla aholisining harakatlarini «daxldorlik» iborasi bilan bog'lash mumkinmi?
3. Matnlar asosida tushirib qoldirilgan so'zlarni toping.

Buvining bunday \_\_\_\_\_ ligiga \_\_\_\_\_ bo'lib turib qoldim.

Yuraqol, girgitton, sanga boshqa \_\_\_\_\_ beraman!

\_\_\_\_\_ bostirmaga olib kirdi-da, \_\_\_\_\_ uyilib yotgan yong'oqlardan hovuchlab olib, \_\_\_\_\_ to'ldirib berdi...

Adham onasidan \_\_\_\_\_ tekkanidan xursand bo'lib, \_\_\_\_\_ solingan xaltani olib yugurib ketdi. Lekin chiqindilarni yo'l chetidagi ariqqa \_\_\_\_\_ yubordi.

O't o'chiruvchilar kelganda ham odamlar \_\_\_\_\_ sodir bo'lgan \_\_\_\_\_ turli narsalarni olib chiqishar, mahalla \_\_\_\_\_ ko'rsatgan yerga yig'ardilar.

Mahallaning \_\_\_\_\_ tufayli ayol va uning hovlisiga katta \_\_\_\_\_ yetmadi.

## Oila davrasida



1. Nima sababdan mahallaga «Qadriyatlar beshigi» deb ta'rif berilganligi haqida o'z fikringizni aiting.
2. «Bir farzandning tarbiyasi uchun yetti mahalla mas'ul» degan hikmatning ma'nosini oilangizdagি kattalardan so'rang.



## II BOB YUZASIDAN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. «Bilmaganni so‘rab o‘rgangan – olim, orlanib so‘ramagan – o‘ziga zolim» maqolini o‘zingizning hayotingiz bilan bog‘lab, kichkina hikoya tuzing. Hikoyangizni ma’nosi yaqin maqollar bilan yakunlang.

2. Bilimning tarbiyaga nima aloqadorligi bor? Bilimsiz inson odobi bo‘lmaydimi? Odobsiz bolaning bilim olishiga nima xalaqit beradi? Oila davrasida muhokama qilib, xulosangiz bilan sinfda o‘rtoqlashing.

3. Olijanoblik, insoniylik xislatlarini qanday tushunasiz? Sinfdoshingizga nazorat ishini ko‘chirtirish, singlingiz (ukan-giz)ga uy vazifasini ishlab berish, birovning xatosini ko‘rib, ko‘rmaslikka olishni siz olijanoblik, insoniylik deb bilasizmi? Nima uchun?


4. Bilim olishimizda bizga ko‘makchi va xalaqit beruvchi omillarni jadvalda ifodalang:

Bilim olishimizga yordam beradi	Bilim olishimizga xalaqit beradi
Ustozlarimizni hurmat qilishimiz	Ustozlarimizni xafa qilishimiz

5. Siz qanday kasblarni bilasiz? Kasbning keraksizi bormi?

6. 83-betdagи chizmaga e’tibor qarating. Xohlagan kasbingizga erishishdan maqsadining haqida fikr yuriting.

7. O‘zingiz mustaqil kun tartibingizni tuzing. Dars tayyorlash, kitob o‘qish, uy yumushlariga yordam berish, sport bilan shug‘ullanish, o‘z vaqtida ovqatlanishga ajratilgan vaqtingizni kompyuter o‘yinlariga chalg‘igan vaqtingiz bilan solishtiring. «Qolgan ishga qor yog‘ar» mavzusida hikoya tuzing.



8. Quyidagi tugallanmagan gaplar asosida ehtiyojkorlik siz uchun muhimligini asoslang:

Avtomobil yo'lini kesib o'tish qoidalariga qat'iy rioya qilmasam...

Suv havzasiga yolg'iz borib, cho'milsam...

Odam yurishi taqiqlangan chegaraga kirmsam...

Uyda pichoq, qaychi, o'tkir sirthi buyumlarni ehtiyojsizlik bilan ishlatsam...

Ko'chada begona yo'lovchi bilan ketsam...

9. «Kitob mening hayotimda» deb nomlangan insholar tanlovida ishtirok eting. Sizning hayotingizda kitobning o'rnnini tushuntirib bering.

10. Sizga kitob sovg'a qilmoqchi bo'lishsa, qaysi kitobni olishni xohlar edingiz? Bu kitobga qiziqishingizga kim sababchi bo'lgan?

11. 3-sinf bolasi kompyuter qarshisida qancha vaqt o'tirishi mumkinligini bilasizmi? Siz kompyuterdan nima maqsadda foydalanasiz?

12. Kompyuter, uyali telefonlarning foydali va zararli tomonlarini esga oling.


Afzalligi:

Zarari:



## REJALI ISH – BEJOG'LIQ ISH

27–28-MAVZULAR: TEJAMKORLIK



### Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar

1. «Tejash» deganda nimani tushunasiz?
2. Nimalarni tejash mumkin?
3. Siz quyidagilardan qaysi birini va nima uchun tejagan bo'lar edingiz?  
Suv, vaqt, gaz, qog'oz, elektr energiyasi, ruchka, qalam...  
Bu ro'yxatga yana nimalarni qo'shgan bo'lar edingiz?

Nozima maktabdan keldi-da, darhol dars tayyorlashga o'tirdi. Onasi: «Avval qorningni to'yg'azib ol, keyin biroz dam olgin, so'ng dars qilasan», – deyishiga qaramasdan, darsga sho'ng'ib ketdi. «Oyijon, darslarimni tayyorlab olsam, keyin xotirjam televizor ko'raman. Men vaqtimni tejayapman», – deya javob berdi Nozima. Bu hol muntazam takrorlanar edi.

Bir kuni Nozimaning qorni rosa og'riddi. Onasi uni shifoxonaga olib bordi. Shifokor betartib ovqatlanganligi uchun Nozimaning osh-qozoni og'riganini, endi biroz muddat kasalxonada davolanishi kerakligini aytdi.





## Ijodiy faoliyat



1. Nozima nimani tejadi? U to'g'ri ish qildimi?
2. Nozimaning vaqtி tejaldimi?
3. Siz suvni qanday tejaysiz?


Yoz kunlarining birida Akbar o'rtoqlari bilan tog' yonbag'riga o'ynagani chiqdi. Akbarning onasi unga tez-tez suv ichib turi-shini, bo'lmasa oftob urib qo'yishi mumkinligini tayinlab, idishga suv quyib bergen edi. Bolalar rosa o'ynab charchadilar. Hamma chanqab o'zining idishidan suv icha boshladi.

Akbar esa ehtiyoitsizlik qilib idishini oftobda

qoldiribdi. Bolalardan biri: «Bu

suvni ichma, to'kib tash-la», – desa ham, «Uvol bo'ladi», – deb, suvni ichdi. Kechga borib Akbarning qorni og'rib, isitmasi ko'tarildi.

Onasi uni shifokorga olib bordi. Shifokor Akbarni oftob urganligini aytdi. Akbar bir necha kun ko'chaga chiqmasdan uyda qoldi.



## Ijodiy faoliyat



1. Akbar nimani tejadi? U to'g'ri ish qildimi?
2. Suvni qaysi vaqtarda tejash kerak?
3. Siz suvni qanday tejaysiz?



### III bob. Rejali ish – bejog'liq ish

Qobil oynadan qarab turgan edi, bir payt qo'shnining oshxonasidan tutun chiqayotganini ko'rdi va tezlik bilan o't o'chiruvchilarga qo'ng'iroq qildi.



Keyinchalik aniqlanishicha, uy egasi gugurtni tejash uchun gazni o'chirmagan ekan. Gaz ko'tarilib, olov tezlashishi natijasida gazga yaqin turgan sochiq yonib ketibdi.



#### Ijodiy faoliyat

1. Gugurtni qanday tejash kerak?
2. Tejalgan gugurt yana qanday oqibatlaraga olib kelishi mumkin edi?
3. Siz nimani tejagan bo'lar edingiz, gugurtnimi, gaznimi?

Zarifa kitobning chiroyli gullar rasmi tushirilgan varag'ini yirtib oldi-da, daftarining usagini bezatdi. Uni kuzatib turgan Zahro: «Voy, nega kitobni yirtding?» – dedi.

«Nima ishing bor. Menga buni dadam olib bergenlar, maktabniki emas, o'zimniki», – deb javob berdi Zarifa.

Zahro: «Nima farqi bor, kitobni asrash kerak-ku! Dadang shu kitobni olib berish uchun qancha mehnat qilganlar. Bu kitobni yozish uchun qancha mehnat sarflanganini bilasanmi?» – dedi.

Zarifa bo'lsa: «Kitobning puli to'langan, u meniki, xohlaganimni qilaman», – deb javob berdi.



## Ijodiy faoliyat



1. Berilgan hikoyalarga sarlavha qo'ying.
2. Zarifa to'g'ri ish qildimi?
3. Siz o'quv qurollaringizni qanday saqlaysiz?
4. Zarifa nimani uvol qildi?
5. Hikoyalar asosida tushirib qoldirilgan so'zlarni toping.

Onasi: «Avval qorningni to'yg'azib ol, keyin biroz \_\_\_\_\_ olgin, so'ng \_\_\_\_\_ qilasan», – deyishiga qaramasdan, \_\_\_\_\_ sho'ng'ib ketdi.

Shifokor \_\_\_\_\_ ovqatlanganligi uchun Nozimaning osh-qozoni \_\_\_\_\_, endi biroz \_\_\_\_\_ kasalxonada \_\_\_\_\_ kerakligini aytди.

Akbarning onasi unga tez-tez suv \_\_\_\_\_ turishini, bo'lmasa oftob \_\_\_\_\_ qo'yishi mumkinligini \_\_\_\_\_, idishga suv quyib bergen edi.

Shifokor Akbarni \_\_\_\_\_ urganligini aytди.

Keyinchalik aniqlanishicha, uy egasi gugurtni \_\_\_\_\_ uchun gazni \_\_\_\_\_ ekan.

Zahro: «Nima farqi bor, kitobni \_\_\_\_\_ kerak-ku! Dadang shu \_\_\_\_\_ olib berish uchun qancha \_\_\_\_\_ qilganlar. Bu kitobni \_\_\_\_\_ uchun qancha mehnat \_\_\_\_\_ bilasanmi?» – dedi.





### III bob. Rejali ish – bejog'liq ish

Ajdodlarimiz doimo suv ifloslanishining oldini olishga harakat qilganlar. Xalqimizda «Suvga tupurma, suvga axlat tashlama», deb bolalarga o'rgatishadi, lekin keyingi vaqtarda odamlar bu so'zlarni unutib, suvdan noto'g'ri foydalana boshladilar, natijada...




#### Ijodiy faoliyat

1. Suvdan noto'g'ri foydalanish natijasida qanday oqibatlar yuzaga kelganligini o'zingiz aytинг.
2. Xalqimizda «Hamma narsaning uvoli bor», «Nimani xor qilsang, o'shangacha zor bo'lasan» degan maqollar bor. Siz bu maqollarni qanday tushunasiz?
3. Maktabingizda, uyda nimani qanday tejaysiz?
4. Gaz, elektr energiyasini tejash uchun nima qilish kerak?



#### Bilasizmi?

Ajdodlarimiz suv tanqis hududlarda uni to'plash va saqlash uchun maxsus gumbazli hovuz qurbanlar. Sardoba ga kirish uchun eshik ham o'rnatganlar. Suvni toza saqlash maqsadida uning oldi devor bilan o'ralgan.





1



2



3



4



5



6



7



8



9

### Oila davrasida



1. Rasmlarga e'tibor bilan qarang. Ularning suv bilan bog'liq tomoni bormi?
2. 1, 2, 3, 4, 5-rasmlardagi holatlarning 6, 7, 8, 9-rasmlardagi holatlarga qanday ta'siri bor?
3. Bir kunda svjni nimalarga sarflaysiz?
4. Suvni nima uchun asrash kerak? Suvni tejashni bilasizmi?
5. 1 va 2-rasmlardagi holatlarning oldini olish mumkinmi?
6. «Tabiat ne'matlarini asrash» mavzusida rasmlar ko'rgazmasini tashkil qiling.



## 29-MAVZU: VAQT QANDAY TEJALADI?



### Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar

1. Vaqtini tejash uchun nima qilishni maslahat bergan bo'lar edingiz?
2. Siz o'z vaqtingizni nimalarga sarflaysiz?
3. Ta'til kunlari yaqin. Siz ta'tilingizni qanday o'tkazmoq-chisiz?

### NINACHI BILAN CHUMOLI

Ninachi sho'x kuylab chaldi soz,  
Sayrlarda o'tdi go'zal yoz,  
Tomoshadan bo'shay demadi,  
Qish g'amini sira yemadi.  
Shunday... bosib keldi qora qish,  
Ulgurmadi, qoldi ko'p yumush.  
Dalalar bo'sh endi, yo'llar jim,  
Izg'irinda yo'qlamas hech kim.  
Har barg soyasida sayl yo'q,  
Uy izlashga darmon, mayl yo'q.  
Kunlar sovuq, boshlandi ochlik,  
Ninachini bosdi muhtojlik.  
Och qoringa qo'shiq na hojat,  
Ninachi ham sezdi halokat.  
Vahm tushdi shirin joniga,  
Chumolining keldi yoniga.  
«Yomon kunga qo'yma, o'rtoqjon,  
Toki yig'ib olayin darmon,





Yoz kelguncha meni och qo'yma,  
 Ayozlarda yalang'och qo'yma».  
 «Hayron bo'ldim! Nega ruhing bo'sh.  
 Ishlabmiding yoz chog'ida, xo'sh?» –  
 Deb so'radi undan Chumoli.  
 «Vaqt bormidi, – der, – ish qilgali,  
 Maysazorda men chalib surnay,  
 Taralla-yu yalla har nafas,  
 Xayolimga qish kelgan emas».  
 «Hali shunday degin?»  
 «Ha, shunday,  
 Qo'shiq aytib o'tdim yoz bo'yi».  
 «Qo'shiq aytib? Ajab bo'lipti,  
 Endi o'yin tushmoq qolipti».

I.A. Krilov



### Oila davrasida



1. «Ninachi bilan chumoli» she'rini ifodali o'qing.
2. Siz ninachiga qanday maslahat bergen bo'lar edingiz?
3. Yozgi ta'tilda nima bilan shug'ullanishingizni oilangizdagilar bilan gaplashib oling.
4. Vaqtingizni to'g'ri taqsimlashni o'rganing.



### III bob. Rejali ish – bejog'liq ish

## III BOB YUZASIDAN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. «Tejamkorlik» so'zini qanday tushunasiz?
2. Vaqt ni behuda sarflash nimaga olib keladi? Siz vaqt dan unumli foydalanasizmi?
3. Suvni tejamaslik nimaga olib keladi? Bir kunda qancha suv sarflashingizni taxmin qilib ko'ring. Suvsiz bir kunni tasavvur qiling.
4. Uyingizda, mакtabda elektr energiyasini tejab ishlatasizmi? Agar elektr energiyasi bo'lмаганда... Gapni tugallang.
5. Kattalardan so'rab ko'ring, tabiiy gaz bo'lмаган paytlarda odamlar qanday kun ko'rgan? Gazdan maqsadsiz foydalanish nimaga olib keladi?
6. O'quv qurollarini qayerdan olasiz? O'qituvchingizdan o'quv qurolli yetishmasligi sababli maktabga bora olmaydigan chet ellik tengdoshlarингiz haqida so'zlab berishini iltimos qiling.



## **MUNDARIJA**

2-SINFDA O'RGANGANLARIMIZNI TAKRORLAYMIZ.....3

### **I BOB. ORZULAR MAQSADLAR SARI YETAKLAYDI**

1-MAVZU: MUNOSIB FARZAND.....	4
2–3-MAVZULAR: MUVAFFAQIYAT – QAT'IYAT VA MEHNAT NATIJASI.....	7
4-MAVZU: SERQUYOSH, HUR O'LKA.....	14
I BOB YUZASIDAN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR.....	17

### **II BOB. BILIM VA ODOB – INSON ZIYNATI**

5-MAVZU: ENG BUYUK SHARAF.....	19
6-MAVZU: BILIM OLISH ODOBI .....	22
7-MAVZU: KIM BO'LSAM EKAN? .....	26
8–9-MAVZULAR: VAQTING KETDI – BAXTING KETDI .....	29
10–11-MAVZULAR: EHTIYOTKORLIK .....	32
12–13-MAVZULAR: KITOBI – BILIM MANBAYI .....	36

14–15-MAVZULAR: ELEKTRON AXBOROTLAR .....	40
16–17-MAVZULAR: KIYINISH MADANIYATI.....	44
18–19-MAVZULAR: OZODALIK – INSON KO‘RKI .....	52
20-MAVZU: OZODALIKNI XONAMIZDAN BOSHLAYMIZ.....	56
21-MAVZU: INSON ODOBI BILAN GO‘ZAL.....	62
22-MAVZU: MEHR-OQIBAT – INSONIY FAZILAT .....	67
23–24-MAVZULAR: QARI BILGANNI PARI BILMAS .....	70
25-MAVZU: QULOG‘IGA QULOQCHIN TAQQAN «QULOQSIZ» BOLA.....	76
26-MAVZU: MAHALLA VA QO‘NI-QO‘SHNICHILIK.....	78
II BOB YUZASIDAN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR.....	82

### **III BOB. REJALI ISH – BEJOG‘LIQ ISH**

27–28-MAVZULAR: TEJAMKORLIK .....	84
29-MAVZU: VAQT QANDAY TEJALADI?.....	90
III BOB YUZASIDAN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR.....	92

*O'quv nashri*

Ro'ziyeva Dilnoz, Ismatova Nargiza, Mo'minova Laylo, Islomov Zohidjon,  
Rahimjonov Durbek, Sattorov Shuhrat, Zamonov Zokir, Maxmudov Obiddin,  
Zokirova Sevara, Shermuxamedova Saodat, Akkulova Saodat,  
Xolmuxamedova Nilufar, Madaliyeva Sevara

## **TARBIYA 3**

BAXT VA MUVAFFAQIYAT SIRLARI

Umumiy o'rta ta'lif muktabalarining  
3-sinf o'quvchilari uchun darslik

Muharrirlar: **Toshpo'lat Mirzayev, Abdumurod Tilavov**

Rassomlar: **Umid Sulaymonov, Sarvar Farmonov,  
Dilmurod Mulla-Axunov**

Dizayner va sahifalovchi **Ravshan Malikov**

Texnik muharrir **Tatyana Xaritonova**

Musahhih **Gulnoz Xudoyorova**

Nashriyot litsenziyasi № AI 542, 02.10.2013.

Bosishga 2020-yil 7-avgustda ruxsat etildi. Bichimi 60x84  $\frac{1}{8}$ .  
Offset qog'ozi. «Arial» garniturasida offset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i 11,16. Nashr tabog'i 12,0.

Adadi 537 697 nusxa. Buyurtma № 20.

«Sano-standart» nashriyoti, 100190, Toshkent shahri,  
Yunusobod-9, 13-54. E-mail: sano-standart@mail.ru

«Sano-standart» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Toshkent shahri, Shiroq ko'chasi, 100-uy.  
Telefon: (371) 228-07-96, Faks: (371) 228-07-95



COLORPACK

Dizayn konsepsiysi va uslubi bosh pudratchi  
«Kolorpak» MCHJ tomonidan ishlandi.

### **Darslik holatini ko'rsatuvchi jadval**

Nº	O'quvchining ismi, familiyasi	O'quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshirilgandagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1.						
2.						
3.						
4.						
5.						
6.						

**Darslik ijaraga berilib, o'quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to'ldiriladi:**

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko'chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo'q.
Qoniqarli	Muqova ezligan, birmuncha chizilib chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta'mirlangan. Ko'chgan varaqlari qayta ta'mirlangan, ayrim betlarga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqova chizilgan, yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo'q, qoniqarsiz ta'mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo'yab tashlangan. Darslikni tiklab bo'lmaydi.